



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иқтисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Xayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иқтисодий назариялар асосида тadbirkorlik субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155
21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne‘matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Kuzieva Dinora Bahodirovna	Uzoq muddatli aktivlarni baҳолаш tartibini такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budjet mablag‘larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O‘ralboy Miraqul o‘g‘li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193





27	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-dagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozoridan moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41	Olokkulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317
44	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida mevachilik tarmog'ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45	Mirzataev Salamat Muratbaevich	Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo'jaligi barqarorligini ta'minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo'llari	335
47	Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun'iy intellekt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49	Karimov Eminjon Gapardjonovich	Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50	Toshev Nurbek Janon o'g'li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko'rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo'llari	371
53	Sultanova Nigora Xikmatxo'ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55	Abduraxmonova Munisa, Alimov Ulug'bek Baxodirovich	Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va	389





		bosqichlari	
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo'llari	395
57.	Xamdamov Shavkat Komilovich	Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G'anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta'minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Gulrux Muzafarovna	Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo'yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G'ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o'sishdagi o'rni: Janubiy Koreya va O'zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Davron Akromovich	Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari	451
63.	Тожибоева Дилором	Иқтисодий фикрлаш тарзи ва унинг қарор қабул қилиш назариясида тутган ўрни	459
64.	Azimov Islom Xolmurodovich	Xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning xorijiy tajribalari va O'zbekistonga qo'llash imkoniyatlari	471
65.	Xadhibekova Aziza Akbarovna	Tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining asosiy funktsiya va prinsiplari	477
66.	Насирова Хатидже Камолжоновна	Методологические основы интеграции ESG-принципов в систему управления инвестиционной привлекательностью промышленных предприятий Республики Узбекистан	484
67.	Azimova Malika Rustamovna	NPVfr modifikatsiyalangan ko'rsatkich asosida O'zbekiston xizmatlar sohasidagi franchayzing loyihalarining iqtisodiy samaradorligini baholash	494
68.	Razzakov Jasur Xamraboyevich	Korporativ biznes sektorini moliyalashtirishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili	501
69.	Sulaymanov Akrom Isamiddinovich	O'zbekiston bank tizimida uzoq muddatli moliyalashtirishning tarkibiy nomutanosibli va ssenariyli erta ogohlantirish chegaralari	507
70.	Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Dilnoza Jamshid qizi	Samarqand viloyatiga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili va ulardan foydalanishning imkoniyatlari	519
71.	Amonova Nazokat Utkurovna	Improving the mechanisms of financing investment activities in the context of economic modernization	526
72.	Xonova Nodira Fazliddinovna	Kraufdfunding platformalari orqali investitsiya loyihalarini moliyalashtirish yo'llari	534
73.	Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning roli	544
74.	Umarov Abduvohob Tursunovich	Mintaqalarni barqaror rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari	550
75.	Nematullayev Hamidullo Azizillo o'g'li	Xorijiy davlatlar qarzini boshqarishga doir tajribalari va milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	557
76.	Bozorov Xayrulla Xaitboyevich	Farg'ona viloyatida biznesni rivojlantirishda jalb qilinayotgan investitsiyalarning ahamiyati	565
77.	Умаров Баходир Султанович	Совершенствование налогового администрирования крупных предприятий реального сектора экономики	570
78.	Ergashev Rustam Rajabovich	Ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish mexanizmlarini dalillarga asoslangan holda joriy etish va monitoring qilish modeli	579
79.	Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari	589





O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY XIZMATLAR METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Ergashev Azizxon Avazxon o‘g‘li

*Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti (TDIU)
mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda mamlakat bank tizimida moliyaviy xizmatlarni rivojlantirishning zamonaviy holati, mavjud muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Tijorat banklarida raqamli bank xizmatlarini kengaytirish, innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish, mijozlarga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish modelini shakllantirish hamda moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish, masofaviy xizmatlarni takomillashtirish va xizmatlar portfelini diversifikatsiyalashning metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotda ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy bank amaliyotiga moslashtirish, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va moliyaviy xizmatlar samaradorligini kompleks baholash zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, tijorat banklari, moliyaviy xizmatlar, metodologiya, raqamli banking, innovatsion xizmatlar, moliyaviy inklyuziya, bank xizmatlari sifati, xizmatlar diversifikatsiyasi, raqobatbardoshlik.

ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДОЛОГИИ ФИНАНСОВЫХ УСЛУГ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Эргашев Азизхон Авазхон ўғли

*Независимый исследователь
Ташкентского государственного
экономического университета (ТГЭУ)*

Аннотация. В данной статье исследованы приоритетные направления совершенствования методологии финансовых услуг коммерческих банков в Узбекистане. В исследовании проанализированы современное состояние, существующие проблемы и перспективы развития финансовых услуг в банковской системе страны. Особое внимание уделено расширению цифровых банковских услуг, внедрению инновационных финансовых продуктов, формированию клиентоориентированной модели обслуживания и повышению качества финансовых услуг в коммерческих банках. Также освещены методологические основы расширения доступа к банковским услугам, развития финансовой инклюзии, совершенствования дистанционного обслуживания и диверсификации портфеля услуг. Обоснована необходимость адаптации передового зарубежного опыта к национальной банковской практике, эффективного использования цифровых технологий и комплексной оценки эффективности финансовых услуг.

Ключевые слова: Узбекистан, коммерческие банки, финансовые услуги, методология, цифровой банкинг, инновационные услуги, финансовая инклюзия, качество банковских услуг, диверсификация услуг, конкурентоспособность.

PRIORITY DIRECTIONS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF FINANCIAL SERVICES OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN

Ergashev Azizxon Avazkhon ugli





*Independent Researcher at
Tashkent State
University of Economics (TSUE)*

Abstract. *This article examines the priority directions for improving the methodology of financial services of commercial banks in Uzbekistan. The study analyzes the current state, existing problems, and development prospects of financial services in the country's banking system. Particular attention is paid to expanding digital banking services, introducing innovative financial products, developing a customer-oriented service model, and improving the quality of financial services provided by commercial banks. The methodological foundations for expanding access to banking services, developing financial inclusion, improving remote services, and diversifying the service portfolio are also discussed. The study substantiates the need to adapt advanced foreign experience to national banking practices, effectively utilize digital technologies, and comprehensively assess the efficiency of financial services.*

Keywords: *Uzbekistan, commercial banks, financial services, methodology, digital banking, innovative services, financial inclusion, banking service quality, service diversification, competitiveness.*

Kirish.

O'zbekistonda tijorat banklari faoliyatini modernizatsiya qilish, moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish mamlakat moliya tizimini barqaror rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, moliyaviy texnologiyalarning keng joriy etilishi, mijozlar ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi hamda banklar o'rtasidagi raqobat muhitining kuchayishi moliyaviy xizmatlarni ko'rsatishning mavjud metodologik yondashuvlarini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Mazkur sharoitda tijorat banklarining an'anaviy faoliyat modeli bosqichma-bosqich mijozlarga yo'naltirilgan, texnologik jihatdan moslashuvchan va innovatsion xizmat ko'rsatish modeliga transformatsiya qilinmoqda.

Ayniqsa, raqamli bank xizmatlari, mobil va internet-banking, masofaviy xizmat ko'rsatish, elektron to'lovlar, raqamli kreditlash, biometrik identifikatsiya, avtomatlashtirilgan maslahat xizmatlari hamda boshqa innovatsion moliyaviy mahsulotlarning rivojlanishi tijorat banklari faoliyatining yangi sifat bosqichiga o'tishiga xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalar bank operatsiyalarini tezlashtirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga sutkaning istalgan vaqtida xizmat ko'rsatish imkoniyatini yaratish hamda moliyaviy mahsulotlarni individual ehtiyojlarga moslashtirish imkonini bermoqda. Natijada bank xizmatlarining hududiy va vaqt bo'yicha cheklovlari qisqarib, aholining turli qatlamlari va tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Mazkur jarayonda banklarning texnologik imkoniyatlari bilan bir qatorda xizmatlarning narxi, tezkorligi, qulayligi, shaffofligi va xavfsizligini ta'minlash ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli xizmatlar hajmining ortib borishi kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, firibgarlik operatsiyalarining oldini olish va axborot tizimlari uzluksizligini ta'minlashga nisbatan yangi talablarni shakllantirmoqda. Shu sababli moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirish faqat yangi texnologiyalarni joriy etish bilan cheklanmasdan, risklarni boshqarish, ichki nazorat, komplayens, axborot xavfsizligi va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tizimlarini ham kompleks ravishda rivojlantirishni talab etadi.


Shu bilan birga, bank xizmatlari sifatini oshirish, mijozlarga individual yondashuvni ta'minlash, moliyaviy xizmatlar portfelini diversifikatsiyalash va aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish bugungi kunda dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunda bank mahsulotlarini ishlab chiqishda mijozlarning daromad darajasi, moliyaviy xulq-atvori, to'lov qobiliyati, xizmatlardan foydalanish odatlari va raqamli savodxonligi kabi omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganishga asoslangan yondashuv





banklarga nafaqat xizmatlar sifatini oshirish, balki mijozlarning bankka sodiqligini mustahkamlash va uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish imkonini ham beradi.

2021–2025-yillarda Aloqabank va Ipotekabankning aktivlari, kreditlari, depozitlari va kapitali umumiy o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Biroq banklarning o'sish sur'atlari va moliyaviy tuzilmasida sezilarli farqlar mavjud. Ayniqsa, Ipotekabankning aktiv va kredit portfeli hajmi Aloqabanknikidan ancha yuqori bo'lgan, Aloqabankda esa 2025-yilda aktivlar va depozitlar bo'yicha jadal o'sish kuzatilgan.



1-rasm. AT Aloqabank va Ipotekabank otp groupning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, mlrd. so'mda

Aloqabankning jami aktivlari 2021-yildagi 8 108 mlrd so'mdan 2025-yilda 23 251 mlrd so'mgacha oshib, qariyb 2,9 baravar ko'paygan. Ayniqsa, 2025-yilda aktivlar 2024-yilga nisbatan 7 206 mlrd so'mga yoki 44,9 foizga oshgani bank faoliyatining sezilarli kengayganini ko'rsatadi.

Kreditlar hajmi ham izchil o'sib, 5 697 mlrd so'mdan 12 690 mlrd so'mgacha yetgan. Bu 122,8 foizlik o'sish demakdir. Kreditlarning aktivlarga nisbati esa 2021-yildagi qariyb 70,3 foizdan 2025-yilda 54,6 foizgacha pasaygan. Demak, aktivlar kreditlarga qaraganda tezroq o'sgan va bank aktivlari tarkibi ma'lum darajada diversifikatsiyalangan.

Aloqabankda eng yuqori o'sish depozitlarda kuzatilgan. Ular 2021-yildagi 4 924 mlrd so'mdan 2025-yilda 13 815 mlrd so'mga yetib, qariyb 2,8 baravar oshgan. 2025-yilda depozitlarning bir yil ichida 49,7 foizga o'sishi bankning resurs bazasi sezilarli mustahkamlanganini bildiradi.

Kapital 1 569 mlrd so'mdan 3 082 mlrd so'mgacha, ya'ni qariyb 96,4 foizga oshgan. 2024-yilda kapitalning 2 643 mlrd so'mgacha keskin ko'tarilishi bankning kapital bazasini mustahkamlashga e'tibor qaratganini ko'rsatadi.

Ipotekabankning aktivlari 2021-yildagi 32 410 mlrd so'mdan 52 069 mlrd so'mgacha oshib, 60,7 foizga ko'paygan. Bank aktivlari hajmi barcha yillarda Aloqabanknikidan sezilarli yuqori bo'lgan. Biroq 2025-yilda aktivlarning o'sish sur'ati 9,3 foizni tashkil etib, Aloqabankdagi 44,9 foizlik o'sishdan ancha past bo'lgan.

Kredit portfeli 2021-yildagi 24 304 mlrd so'mdan 2024-yilda 37 264 mlrd so'mgacha oshgan, biroq 2025-yilda 35 094 mlrd so'mgacha kamaygan. Shunday qilib, besh yillik davrda kreditlar 44,4 foizga oshgan bo'lsa-da, 2025-yildagi pasayish kreditlash siyosatining ehtiyotkorlashganini yoki kredit portfelini qayta ko'rib chiqish jarayonlarini anglatishi mumkin.

Ipotekabankda depozitlar eng yuqori o'sish sur'atini namoyish etgan. 2021-yildagi 9 499 mlrd so'mdan 2025-yilda 25 692 mlrd so'mgacha, ya'ni qariyb 2,7 baravar oshgan. Ayniqsa, 2025-





yilda depozitlar 7 919 mlrd soʻmga yoki 44,6 foizga koʻpaygan. Bu bankning jalb qilingan resurslari sezilarli kengayganini koʻrsatadi.

Kapital 4 274 mlrd soʻmdan 7 337 mlrd soʻmgacha oshgan, yaʼni 71,7 foizga koʻpaygan. Biroq 2025-yilda kapital 7 579 mlrd soʻmdan 7 337 mlrd soʻmgacha biroz kamaygan. Bu holat aktivlar va depozitlar oʻsishi bilan birgalikda kapital yetarliligi masalasini doimiy nazorat qilish zarurligini koʻrsatadi.

Umuman, Ipotekabank moliyaviy koʻlam jihatidan yirikroq bank boʻlib, 2025-yilda uning aktivlari Aloqabanknikidan 2,2 baravar, kreditlari 2,8 baravar va kapitali 2,4 baravar yuqori boʻlgan. Biroq Aloqabank 2021–2025-yillarda tezroq oʻsish surʼatlarini namoyon etgan. Ayniqsa, uning 2025-yildagi aktivlarining keskin oʻsishi va depozitlar bazasining kengayishi ijobiy tendensiya hisoblanadi.

Ikkala bank uchun ham eng muhim jihat — depozitlarning kreditlarga nisbatan tez oʻsishi. Bu banklarning kreditlashni asosan ichki jalb qilingan resurslar hisobidan moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi va likvidlik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, Ipotekabankda 2025-yilda kredit portfelining qisqarishi, kapitalning biroz kamayishi va Aloqabankda aktivlarning juda tez oʻsishi kelgusida risklarni boshqarish hamda kapital yetarliligiga alohida eʼtibor berishni talab qiladi.

2021–2025-yillarda AT Aloqabank (AB) va Ipotekabank OTP Group (IB) aktivlarining muddatlar boʻyicha tarkibida sezilarli farqlar mavjud. Ipotekabank aktivlari hajmi butun davr davomida Aloqabanknikidan ancha yuqori boʻlib, 2025-yil 1-yanvar holatiga mos ravishda 52 069 mlrd soʻm va 23 251 mlrd soʻmni tashkil etgan.

1-jadval

AT Aloqabank va Ipotekabank otp group aktivlarining muddatlar boʻyicha taqsimoti, mlrd. soʻmda (1-yanvar holatiga)

Muddati	2021		2022		2023		2024		2025	
	AB	IB	AB	IB	AB	IB	AB	IB	AB	IB
Muddatsiz	1333	6552	3 258	8180	4 021	6178	3 114	5079	4 771	4667
1 kundan 7 kungacha	0	183	22	364	180	630	63	719	30	4973
8 kundan 30 kungacha	287	428	250	1224	628	1843	802	1668	840	1833
31 kundan 90 kungacha	489	831	858	1875	1192	2841	876	4864	1407	5429
91 kundan 180 kungacha	793	1941	949	2300	1138	2033	1092	3369	1306	4236
181 kundan 365 kungacha	1351	2502	1724	2647	2118	6762	1 416	5815	2327	5172
366 kundan 730 kungacha	1775	2677	1573	4600	1818	3819	2 161	5540	3442	4858
2 yildan yuqori	2080	1729 6	4004	1882 2	4989	2008 1	6 521	2058 4	9128	2090 1
Jami	8108	3241 0	1263 8	4001 2	1608 4	4418 7	16 045	4763 8	2325 1	5206 9

Aloqabank aktivlari 2021-yildagi 8 108 mlrd soʻmdan 2025-yilda 23 251 mlrd soʻmgacha oshib, qariyb 2,9 baravar koʻpaygan. Eng katta oʻsish 2025-yilda kuzatilib, aktivlar bir yil ichida 7 206 mlrd soʻmga oshgan. Ipotekabank aktivlari esa 32 410 mlrd soʻmdan 52 069 mlrd





soʻmgacha, yaʼni 60,7 foizga oʻsgan. Shunday qilib, Ipotekabankning aktivlar bazasi yirikroq va nisbatan barqaror oʻsish surʼatiga ega.

Muddat tarkibida eng muhim jihat — 2 yildan yuqori muddatli aktivlarning ustunligi. 2025-yilda Aloqabankda ushbu aktivlar 9 128 mlrd soʻm yoki jami aktivlarning qariyb 39,3 foizini, Ipotekabankda esa 20 901 mlrd soʻm yoki 40,1 foizini tashkil etgan. Bu ikki bank aktivlarining katta qismi uzoq muddatli moliyalashtirishga yoʻnaltirilganini koʻrsatadi.

Aloqabankda 2 yildan yuqori muddatli aktivlar 2021-yildagi 2 080 mlrd soʻmdan 2025-yilda 9 128 mlrd soʻmgacha oshgan. Ipotekabankda esa ushbu koʻrsatkich 17 296 mlrd soʻmdan 20 901 mlrd soʻmgacha koʻpaygan. Mutlaq hajm boʻyicha Ipotekabank ancha ustun boʻlsa-da, har ikkala bankda ham uzoq muddatli aktivlarning ulushi deyarli 40 foiz atrofida.

Muddatsiz aktivlar boʻyicha 2025-yilda Aloqabankda 4 771 mlrd soʻm, Ipotekabankda 4 667 mlrd soʻm qayd etilgan. Qizigʻi, mutlaq hajm boʻyicha ular deyarli teng boʻlsa-da, ulush jihatidan farq katta: Aloqabankda 20,5 foiz, Ipotekabankda esa 9,0 foiz. Bu Aloqabank aktivlarining nisbatan katta qismi qisqa yoki muddatsiz xarakterga ega ekanini koʻrsatadi.

2025-yilda 1 kundan 7 kungacha boʻlgan aktivlar Ipotekabankda keskin oshib, 4 973 mlrd soʻmga yetgan. Bu jami aktivlarning qariyb 9,6 foiziga teng. Aloqabankda esa ushbu koʻrsatkich atigi 30 mlrd soʻmni tashkil etgan. Bu Ipotekabank aktivlarining qisqa muddatli segmentida sezilarli oʻzgarish yuz berganini koʻrsatadi.

31–90 kunlik aktivlar ham Ipotekabankda 2021-yildagi 831 mlrd soʻmdan 2025-yilda 5 429 mlrd soʻmgacha oshgan. 181–365 kunlik aktivlar esa 2 502 mlrd soʻmdan 5 172 mlrd soʻmgacha koʻpaygan. Aloqabankda ham ushbu segmentlar oʻsgan, biroq ularning mutlaq hajmi Ipotekabankka nisbatan ancha kichik.

Umuman olganda, ikkala bankda ham aktivlarning muddat tarkibida uzoq muddatli aktivlar asosiy oʻrinni egallaydi. Ipotekabankda 2 yildan yuqori muddatli aktivlarning yuqori ulushi bankning uzoq muddatli kreditlash va investitsion faoliyatiga xos boʻlsa, Aloqabankda muddatsiz va qisqa muddatli aktivlarning ulushi nisbatan yuqori. Bu holat likvidlik va foiz risklarini boshqarishda banklarning strategiyalari bir-biridan farq qilishini koʻrsatadi. 2025-yilda Ipotekabankda qisqa muddatli aktivlarning ayrim segmentlari keskin oshgani esa aktiv-passivlarni muddatlar boʻyicha muvofiqlashtirish masalasiga alohida eʼtibor qaratishni talab qiladi.

Xulosa.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Oʻzbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirish mamlakat bank tizimining raqobatbardoshligi, moliyaviy barqarorligi va mijozlarga xizmat koʻrsatish sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Hozirgi bosqichda bank xizmatlarini rivojlantirish jarayoni anʼanaviy xizmat koʻrsatish modelidan raqamli, innovatsion va mijozlarga yoʻnaltirilgan modelga oʻtish bilan tavsiflanadi. Mamlakatda banklarning moliyaviy xizmatlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni yagona platformada taqdim etish tizimining rivojlanayotgani ham xizmatlar shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida Oʻzbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishning asosiy ustuvor yoʻnalishlari sifatida raqamli transformatsiyani jadallashtirish, innovatsion bank mahsulotlarini kengaytirish, mijozlarga yoʻnaltirilgan xizmat koʻrsatish, moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish va xizmatlar portfelini diversifikatsiya qilish zarurligi asoslandi. Ayniqsa, mobil banking, internet-banking, raqamli toʻlovlar va masofaviy xizmatlardan foydalanishni kengaytirish bank xizmatlarining tezkorligi va qulayligini oshirish bilan birga, banklarning operatsion xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham raqamli xizmatlarni bank strategiyasining ustuvor yoʻnalishiga aylantirish va ularning samaradorligini baholash uchun yagona koʻrsatkichlar tizimini shakllantirish taklif etilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirishda mijozlarning individual ehtiyojlarini hisobga olish alohida ahamiyatga ega. Banklar xizmatlarni mijozlarning daromadi, moliyaviy xatti-harakati, kredit tarixi va ehtiyojlariga mos ravishda shakllantirishi lozim. Ayniqsa,





kredit tarixiga ega bo'lmagan kichik biznes subyektlarini baholashda muqobil ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan scoring tizimlarini rivojlantirish moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. O'zbekistonda bunday yondashuvni sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qilish imkoniyatlari ham ko'rib chiqilmoqda.

Shuningdek, bank xizmatlarini rivojlantirishda fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish muhim yo'nalish hisoblanadi. Bunday texnologiyalar kredit risklarini baholash, firibgarlikni aniqlash, mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish va individual moliyaviy mahsulotlarni taklif etish imkonini beradi. Biroq raqamlashtirish bilan bir qatorda kiberxavfsizlik, mijoz ma'lumotlarini himoya qilish va operatsion risklarni boshqarish mexanizmlarini ham takomillashtirish talab etiladi. O'zbekiston Markaziy banki tomonidan moliyaviy xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish va raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan choralar ushbu yo'nalishning institutsional ahamiyatini ko'rsatadi.

Umuman olganda, O'zbekistonda tijorat banklari moliyaviy xizmatlar metodologiyasini takomillashtirish “raqamlashtirish – innovatsiya – mijozga yo'naltirilganlik – samaradorlik – xavfsizlik” tamoyillari asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda xizmatlar samaradorligini kompleks baholash, raqamli kanallar ulushini oshirish, innovatsion mahsulotlarni joriy etish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va xizmatlar sifatini muntazam monitoring qilish muhim hisoblanadi. Mazkur yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi tijorat banklarining daromadliligi va raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar qoniqishini yaxshilash hamda O'zbekiston bank tizimining zamonaviy xalqaro talablarga mos ravishda rivojlanishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Устойчивость банковской системы и развития банковской политики. Монография. Под ред. Проф О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – С. 131-140
2. Шальпанов П.А. Управление ликвидностью: механизм прогноза денежных потоков банка. // Банковское дело. -2014.-№9. -56-60 стр.
3. Эдвин Дж. Долан и др. Деньги, банковское дело и денежно-кредитная политика. – СПб.: “Санкт-Петербург Оркестр”, 1994. – С. 90-93.
4. Азизов У. ва бошқ. Банк иши: Дарслик. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги. – Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2016,- 638 б
5. Антипова А.Н. Стандарты банковского надзора в России. -М.:ЦПП Банка России. 1999. –С-67
6. Банковское дело. Под ред. проф. О.И.Лаврушина.-М.: КНОРУС, 2009.-С.12
7. Банки и банковское дело. Под ред. И.Т.Балабанова.- М.: Питер, 2003. -259 с.
8. Банковская система в современной экономике: учебное пособие / под ред. Проф. О.И.Лаврушина.-М.:КНОРУС, 2011.

